

**“YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH” MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA**

**(2021 yil 20 dekabr)**

**AXBOROT XATI**

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti Yaponiyaning Nagoya universiteti bilan hamkorlikda joriy yilning 20 dekabrda *“Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash”* mavzusidagi *xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya* o'tkazish rejalashtirilgan.

**Konferensiyada ko'riladigan masalalar:**

*1-yo'nalish: Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ta'lim mexanizmlari;*

*2-yo'nalish: Yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda mahallaning o'rni;*

*3-yo'nalish: Yosh oilalarda ajralish holatlari: muammo va yechimlar;*

*4-yo'nalish: Oilada ota-onalik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari.*

*Ilmiy-amaliy konferensiyani o'tkazish tartibi: Konferensiya 2021 yil 20 dekabr soat 10.00 da o'tkaziladi (Zoom videoaloqa dasturi orqali ulanish uchun havola [www.yomi.uz](http://www.yomi.uz) saytida e'lon qilinadi). Unda vazirlik, idora, turli tashkilot-muassasalar tegishli mutaxassislari, Nagoya Universiteti vakillari, Nagoya Universitetining O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti vakillari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi vakillari, yosh olimlar (doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar hamda bakalavr bosqichidagilar)ning ishtirok etishi nazarda tutilgan.*

**Ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etuvchilarning ilmiy maqolalari**  
**quyidagi talablar asosida qabul qilinadi:**

1. Ilmiy maqolalar konferensiya yo'nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlillarga tayanib, tugallangan fikrlar asosida tegishli taklif va tavsiyalar taqdim etilgan bo'lishi lozim.

2. Taqdim etilayotgan ilmiy maqolalar soha bo'yicha yetuk mutaxassislarning kamida bitta taqrizi bilan qabul qilinadi.

3. Ilmiy maqolalar matnlari tahrir qilingan holda A4 hajmdagi qog'ozga, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm joy qoldirib, bir nusxada rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Maqolaning nomi bosh harflar bilan yozilib, 1,5 intervaldan so'ng muallifning to'liq familiyasi, ismi va otasining ismi hamda lavozimi yoki ilmiy unvoni yoziladi (hammualliflar soni 2 nafardan oshmasligi lozim), 1 intervaldan keyin tashkilot (ish yoki o'qish joyi) va shahar nomi ko'rsatiladi. So'ngra 1,5 interval qoldirilib, matn mazmuni 1,5 intervalli qatorlarda yoziladi..

4. Maqolalarning qisqacha annotatsiyasi 6-8 qatordan oshmagan holda beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo'llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to'la mazmunidan kelib chiqqan holda muallifning ilmiy va amaliy hissasining qisqacha bayoni yoritiladi.

5. Tayanch so'zlar maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so'zlar hisoblanadi va maqolada ajratilgan holda ko'rsatilishi lozim.

6. Jadvallar, chizmalar va grafiklar maqola matniga joylashtirilishi, o'qish uchun qulay va tushunarli bo'lgan raqamlangan sarlavhali va aniq belgilangan ustunlarga ega bo'lishi kerak. Ulardagi ma'lumotlar matndagi raqamlarga mos kelishi, lekin unda keltirilgan ma'lumotlarni takrorlamasligi kerak. Matndagi jadvallarga yo'llanma linklar qo'yish majburiydir.

7. Matnning elektron nusxasi MS Word dasturida, Cambria shriftida, 14 kegel kattaligida bo'lishi, 7 betdan kam bo'lmasligi va o'rtacha 20 betgacha bo'lishi lozim. Maqolalarning elektron nusxasi (RTF) va taqrizi imzosi bilan skaner qilingan (PDF) holatda maqolaga ilova qilib, **+99890-119-25-06** raqamiga yuboriladi.

8. Havolalar maqolaning oxirida beriladi, unda adabiyotning muallifi, nomlanishi, nashriyoti, nashr yili, fikr olingan yoki asoslangan sahifasi ko'rsatiladi hamda o'rnatilgan tinish belgilari tizimiga amal qilinadi.

Har bir maqola antiplagiat dasturida tekshiriladi.

Konferensiyaning rasmiy tili: **ingliz tili**

## **Maqolalar ingliz tilida qabul qilinadi.**

Konferensiya uchun materiallar **2021 yil 25 noyabrga** qadar O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining (Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi 45-uy) tashkiliy qo'mitasiga taqdim etilishi lozim.

Maqolalar ilmiy saviyasi bo'yicha tashkiliy qo'mita tomonidan tanlab olinadi. Qo'yilgan talablarga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qo'lyozmasi qaytarilmaydi.

Bayon etilgan ma'lumotlar va ularning ilmiy-nazariy asoslanganligi hamda metodik jihatlari bo'yicha muallif(lar) mas'uldir.

Batafsil ma'lumotlarni **+998 90 119 25 06 telefon raqami orqali olish mumkin.**

**YOSHLARDA MA'NAVIY QIYOFANING O'ZGARISHI**

*Alimov Aziz Avezovich, falsafa fanlari doktori, professor,*

*Xojamuratova Aziza Fayziyevna, 2 kurs talabasi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh. Qoraqalpog'iston  
Respublikasi

Telefon raqami: (90) 000-00-00

Mamlakatimizda yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faolligini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma'naviy hamda intellektual salohiyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.  
[1., 15-b.]

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: Nihol, 2016. -272 b.
2. Olimova Y, Qodirov K. Yoshlarning manaviy rivojlanishi – Tahlil 2019. – 45 b.

**KONFERENSIYA QATNASHUVCHISI ANKETASI**

F.I.Sh.:	
Sho'b'a:	
Tezis nomi:	
Ish o'rni va manzili:	
Lavozimi:	
Ilmiy daraja va unvoni:	
Ish joyi va mobil telefoni:	
e-mail:	